# QORAQALPOGISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

**"Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021 yil 17-sentyabrdagi 303-sonli buyru g'i haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalami davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5216-sonli qaroriga muvofiq hamda "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalari hisobini to'g'ri yuritilishini ta'minlash va nazorat qilish uchun O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2021yil 17-sentyabrdagi 303-sanli buyrug'ini ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN**

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2021 yil 17-sentyabrdagi 303-sanli buyrug'i qabul qilinsin va ijrosi ta'minlansin.
2. "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ilovaga muvofiq qabul qilinsin.
2. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari Sh.Tadjimuratov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **R.Reimov**

Nukus shaxri,
2021 yil «24» sentyabr
212-sonlı

A. Aynuqpatov

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

**"Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagi PQ–5216-sonli qaroriga muvofiq hamda "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalari hisobini to'g'ri yuritilishini ta'minlash va nazorat qilish maqsadida **buyuraman:**

1. "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan **foydalanish bo'yicha yo'riqnoma** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari V.Rajapov zimmasiga yuklatilsin.

3. Ushbu buyruq imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Xalq ta'limi vaziri** **Sh.Shermatov**

Toshkent sh.,
2021-yil 17- sentyabr,
303 son

QR XALIQ BILIMLENDIRIW MINISTRLIGI
KIRIS № 279
"20" 09 2021 jil.

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirining
2021-yil "17"-sentyabrdagi
303 -son buyrug'iga
ILOVA

**"Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish bo'yicha**

## YO'RIQNOMA

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda o'quv-tarbiya muassasalari) ko'rsatiladigan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrdagi 105-son "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i talablari asosida amalga oshiriladi.

3. Mazkur Yo'riqnoma o'quv-tarbiya muassasalari uchun majburiydir.

4. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**beg'araz yordam (xayriya)** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beg'araz berilgan asosiy vosita, tovar moddiy zaxiralar va boshqa qimmatbaho vositalarni, shu jumladan pul ko'rinishidagi mablag'larni o'tkazib berish, beg'araz xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish yoki boshqa shaklda qo'llab-quvvatlash harakatlarini amalga oshirish;

**homiylar** – homiylikni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

**homiylik (homiylik faoliyati)** – yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag'larini qaytarmaslik sharti bilan ular uchun ishlar bajarishda, ularga xizmatlar ko'rsatish va ularni boshqacha shaklda qo'llab-quvvatlashda ifodalanadigan ixtiyoriy beg'araz yordami (faoliyati);

**homiylik xayriyalari** – homiylik maqsadlariga yo‘naltiriladigan asosiy vosita, tovar moddiy zaxiralar va boshqa qimmatbaho vositalar, shu jumladan pul mablag‘lari;

5. Homiylik xayriyalari o‘quv-tarbiya muassasalari balansiga kirim qilinadi.

6. O‘quv-tarbiya muassasalariga homiylik xayriyalari quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

tarbiyalanuvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni himoya qilish;

tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy va moddiy ahvolini yaxshilash;

tarbiyalanuvchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ularning ma’naviy kamol topishiga ko‘maklashish;

turli madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa ko‘rinishdagi dam olish dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

o‘quv-tarbiya muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Qonunchilikka muvofiq homiylik xayriyalari boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Qonunga zid bo‘lgan har qanday faoliyatni homiylik vositasida qo‘llab-quvvatlash taqiqlanadi.

## 2-bob. Homiylik Komissiyasi

7. Har bir o‘quv-tarbiya muassasasida muassasaga qilingan homiylik xayriyalarini qabul qilish va undan foydalanish bo‘yicha Homiylik Komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Komissiya) tuziladi.

8. Komissiya 7 kishidan kam bo‘lmagan toq sondan iborat quyidagi tarkibda tuziladi:

komissiya raisi - direktorning birinchi o‘rinbosari;

komissiya kotibi – omborchi;

komissiya a’zolari - kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi, bosh hisobchi, tibbiyot xodimi, yumshoq buyumlar bekasi, 1 nafar tajribali tarbiyachi.

9. Komissiyaning vazifalari:

homiylik xayriyalarini tegishli dalolatnoma asosida qabul qilish va maqsadli sarflanishini ta’minlash;

homiylik xayriyalarining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat olib borishdan iborat.

10. Komissiya har chorakda bir marta yig‘iladi. Zarur hollarda navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin. Komissiya yig‘ilishi bayonnoma bilan



rasmiylashtiriladi.

11. Komissiya yig‘ilishida uning umumiy a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda Komissiya qaror qabul qilishi mumkin.

## 3-bob. Homiylik xayriyalarini qabul qilish tartibi

12. Homiylar xayriya ishlarini amalga oshirish uchun dastlab o‘quv-tarbiya muassasasi Komissiya a’zolari bilan uchrashib, ularga homiylik maqsadini ma’lum qiladi.

13. Komissiya a’zolari homiy bilan uchrashgandan so‘ng ularning maqsadini o‘quv-tarbiya muassasasi direktoriga ma’lum qiladi va direktor ushbu homiylik yuzasidan o‘zining munosabatini bildiradi.

14. O‘quv-tarbiya muassasasi direktorining ruxsati olingach, homiylar tomonidan muassasaning tegishli hisob raqamiga mablag‘lar o‘tkazilishi, muassasaga foydalanishga ruxsat etilgan tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlar berilishi mumkin.

15. Homiylar o‘quv-tarbiya muassasasi direktorining ruxsatiga ko‘ra Komissiya a’zolari ishtirokida tarbiyalanuvchilar bilan uchrashib, bolalarga tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlarni tarqatishi mumkin.

16. Homiylar tomonidan o‘quv-tarbiya muassasasiga olib kelingan tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlarga ehtiyoj bo‘lmasa, muassasa rahbariyati ushbu tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlarni qabul qilmasligi va sababini homiyga tushuntirishi mumkin.

17. Homiylar o‘quv-tarbiya muassasasi direktori bilan kelishgan holda muassasada xayriya tadbirini (ma’naviy-ma’rifiy, sport va boshqa tadbirlar) tashkil etishi va bolalar uchun mehmondorchilik dasturxonini yozishi mumkin.

Bunda, dasturxonga qo‘yiladigan oziq-ovqat mahsulotlari muassasaning tibbiyot xodimi ko‘rigidan o‘tkazilishi shart.

Dasturxonga qo‘yiladigan taomlar o‘quv-tarbiya muassasasi hududida tayyorlanishi lozim.

18. Komissiya a’zolari homiylik qilingan tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlarni qabul qilish yuzasidan mazkur yo‘riqnoma ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiradi.

Dalolatnomani rasmiylashtirishda homiy o‘zi haqida ma’lumot kiritilishini xohlamasa, bunday holda homiyning ismi sharifi o‘rniga “noma’lum shaxs” deya ko‘rsatiladi.

19. Homiylar yordamlari qabul qilinib, insonparvarlik yordami to‘g‘risida

dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng, ushbu dalolatnoma muassasa hisobxonasiga taqdim etiladi.

Bundan tashqari, homiylik yordami sifatida qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar va oziq-ovqatlar tegishli daftarga qayd etib boriladi.

20. Homiylar tomonidan insonparvarlik yordami sifatida biror xizmat (bino, mebel, avtotransport va hokazolarni ta'mirlash ishlari) amalga oshirilsa, bu to'g'risida shartnoma imzolanishi mumkin va Komissiya dalolatnoma tuzadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan muassasaga asosiy vositalar kelib tushganda, muassasa rahbari tomonidan buyruqda belgilangan komissiya tarkibi bilan AV-1-son shakldagi budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma ikki nusxada tuziladi. Mazkur dalolatnoma muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi va unga ushbu asosiy vositaga tegishli bo'lgan barcha texnik hujjatlar (pasport, chizmalar va boshqalar) ilova qilinadi.

21. Homiylik xayriyalari olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda o'z rasmiy web-saytlarida olingan homiylik xayriyalari to'g'risidagi axborotni oshkor etishi shart.

Bunda, homiyning nomini oshkor qilish yoki oshkor qilmaslik uning xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

## 4-bob. Oziq-ovqat mahsulotlari ko'rinishidagi xayriyalarni qabul qilish tartibi

22. O'quv-tarbiya muassasasida homiylik xayriyalarini "qabul qilish burchagi" tashkil etilishi hamda ushbu burchak quyidagi jihozlar bilan:

tarozi;

o'lchov asboblari;

o'lchov idishlari va boshqa nazorat moslamalari.

23. Qabul qilish joyida video kuzatuv kameralari (ovoz yozuvchi qurilmasi) bo'lishi lozim.

24. Oziq-ovqat mahsulotlari qadoqlangan, o'ralgan va tamg'alangan, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotining muvofiqlik sertifikati, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mos bo'lishi shart.

25. Uy sharoitlarida tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, yaroqlilik muddati o'tgan, sifatsizligi belgi berib turgan, taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo'lmagan, oziq-ovqat mahsulotlari qabul qilinmaydi.



26. Oziq-ovqat mahsulotlari organoleptik ko'rsatkichlari (ta'mi, hidi, rangi, tabiiy holati) va tabiiy-kimyoviy ko'rsatkichlari komissiya tarkibida ishtirok etayotgan tibbiyot xodimi tomonidan tekshiriladi.

27. Umumiy yaroqlik muddatining 50 foizidan o'tgan oziq-ovqat mahsulotlari qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

28. Oziq-ovqat mahsulotlarini yaroqlik muddati qisqa qolgan hollarda zarur bo'lgan miqdorda qabul qilinadi.

## 5-bob. Yakuniy qoidalar

29. Mazkur Yo'riqnoma talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

30. Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan kelishilgan.

**O'zbekiston Respublikasi**
**Milliy gvardiyasi qo'mondoni** **R. Djurayev**

2021 yil "11" 09.